

KORPORATIV BOSHQARUVDA DIVIDEND SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH

Asqarov Izzatillo

Annotatsiya. Dividend - bu lotincha soʻzdan kelib chiqqan boʻlib, aksiyadorlik jamiyatlarining yil yakuni boʻyicha olgan sof foydalarining aksiyadorlar oʻrtasida taqsimlanishi tushuniladi. Dividend soʻmmasini aksiyadorlarga adolatli taqsimlashning jahon mamlakatlari amaliyotida qabul qilingan yagona usuli bor. Bu ham boʻlsa dividendni aksiyadorlarning ixtiyoridagi aksiyalari miqdoriga nisbatan proporsional taqsimlash.

Kalit soʻzlar: *dividend, tamoyil, zarar, foyda, asosiy mezonlari.*

Bugungi kunda korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish masalasiga mamlakatimizda jiddiy eʼtibor qaratilmoqda va bu boradagi yondashuvlarni tubdan

oʻzgartirish maqsadida qator-qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida mamlakat miqyosida iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda ular faoliyatining asosiy mezonlaridan biri boʻlgan dividend siyosati xususida toʻxtalish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan quyida dividend siyosatining amaldagi holati, dividend siyosatini samarali tashkil etish masalalariga eʼtibor berishimiz lozim.

Dividend jamiyat sof foydasining aksiyadorlar oʻrtasida taqsimlanadigan qismidir. Jamiyat aksiyalarning har bir turi boʻyicha eʼlon qilingan dividendlarni toʻlashi shart. Dividend aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi qaroriga koʻra pul mablagʻlari yoki boshqa qonuniy toʻlov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qogʻozlari bilan toʻlanishi mumkin. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari boʻyicha dividendlarni qimmatli qogʻozlar bilan toʻlashga yoʻl qoʻyilmaydi. Dividend aksiyadorlar oʻrtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Korporativ boshqaruvda dividend siyosati Oʻzbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonunini 6-bobida keltirilgan dividend siyosatiga tegishli moddalari asosida amalga oshiriladi. Korporativ boshqaruv joriy etilgan korxonalarda mazkur qonunga tayangan holda aksiyadorlarning umumiy yigʻilishida “Dividend siyosati toʻgʻrisida Nizom” tasdiqlanadi. Mazkur Nizom asosida kompaniyalarda dividend siyosati amalga oshiriladi.



Mazkur Nizomda korxonada dividend siyosatida aks ettirilishi va oshkor qilinishi zarur bo'lgan umumiy masalalar ko'riladi. Korxonaning dividend siyosati aksiyadorlarning farovonligini yuksaltirish va kompaniya kapitallasuvi o'sib borishini ta'minlashga yo'naltirilgandir. Nizom aksiyadorlarni va boshqa manfaatdor shaxslarni korxonaning dividend siyosati to'g'risida xabardor etish maqsadini ko'zda tutadi.

Mazkur Nizom Kuzatuv kengashining aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yondashuvini belgilaydi. Aksiyadorlarga dividendlar to'lovi ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash zaruratiga asoslangan holda hal qilinishi Nizomda belgilanadi. Nizomning amal qilish muddati Nizomda belgilanadi. Kompaniya kapitallashtirish o'sishini aksiyadorlarning Jamiyat aksiyalaridan daromadlar olish bo'yicha qonuniy mulkiy manfaatlarini qondirishning asosiy usuli sifatida ko'radi.

Dividend siyosati aksiyalarning bozor qiymatini oshirish maqsadida Kompaniya tomonidan olingan foydaning iste'mol qilinadigan va kapitalga aylantiriladigan qismlari o'rtasidagi nisbatlarni optimallashtirish iborat.

Ushbu Nizomda belgilandek, kompaniya dividend siyosatini quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan holda olib boradi:

- shaffoflik tamoyili – dividend siyosatini amalga oshirishda ishtirok qilayotgan tomonlarning vazifalari va javobgarliklari, shu jumladan dividendlar to'lovi va miqdori to'g'risida qarorlar qabul qilish tartibi va shartlari to'g'risidagi axborotning belgilanishi va oshkor qilinishini nazarda tutadi;

- o'z vaqtida tamoyili – dividend to'lovlarini amalga oshirishda vaqt oralig'i chegaralari belgilanishini nazarda tutadi;

- asoslanganlik tamoyili – dividendlar to'lovi va miqdori to'g'risida qaror Kompaniya tomonidan ijobiy moliyaviy natijalarga erishilgan taqdirdagina, Kompaniyaning haqiqiy moliyaviy ahvoriga asoslanib rivojlanish rejalari va uning investitsiya dasturlari hisobga olingan holda qabul qilinishi mumkinligini nazarda tutadi;

- adolatlilik tamoyili – aksiyadorlar dividendlar to'lovi, miqdori va tartibi to'g'risida qabul qilinadigan qarorlar yuzasidan axborot olishda teng huquqlarini ta'minlanishini nazarda tutadi;

- izchillik tamoyili – dividend siyosati tadbirlari va tamoyillarining qat'iy ijro qilinishini nazarda tutadi;

- rivojlanish tamoyili – Kompaniyaning strategik maqsadlari o'zgarishi tufayli dividend siyosati qoidalarini qayta ko'rib chiqish va korporativ



boshqaruv tadbirlarini yaxshilash doirasida dividend siyosati doimiy takomillashtirilishini nazarda tutadi;

- barqarorlik tamoyili – Kompaniyaning dividendlar to'lovining barqarorlik darajasini ta'minlashga intilishini nazarda tutadi.

Joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lovi to'g'risida qarorlar qabul qilish (e'lon qilish) Kompaniya huquqi hisoblanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lovi yoki to'lanmasligi to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega. E'lon qilingan dividendlar to'lovi Kompaniya vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Benlemlih. Korporativ ijtimoiy javobgarlik va dividend siyosati. Xalqaro biznes va moliya sohasidagi tadqiqotlar. (2019) www.elsevier.com/locate/ribaf

2. Elmirzayev S. Korxonalar namozini. Darslik / - T: "Iqtisod-moliya", 2019. 364b.

3. Elmirzaev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv: Darslik / - T: "Iqtisod-moliya", 2019. - 416 b.

4. Elmirzayev S.E. Dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish

masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" elektron jurnali. № 2, oktyabr, 2016 yil

5. Braley R., Myers S. Korporativ moliya tamoyillari. Moskva. Olympus-Biznes.-2007, 407 bet.

